

20-Yanvar, 2026-yil

ABDULLA QODIRIY - MA'NAVIYAT SARCHASHMASI

**Abdusattorov Aliakbar**

**Jo'rayev Asrorbek**

Toshkent Davlat Texnika Universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

---

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek romanchilik maktabining asoschisi, buyuk adib Abdulla Qodiriyning adabiy merosi, ijodiy dahosi va uning milliy adabiyot taraqqiyotidagi beqiyos o'rni keng yoritiladi. Asosan “O'tkan kunlar” romani misolida yozuvchining realizm tamoyillariga asoslangan badiiy mahorati, til boyligi, obraz yaratish san'ati hamda millat taqdiri, mustaqillik, ma'naviyat va inson erki kabi muhim g'oyalarni yoritish usullari tahlil qilinadi. Maqolada Qodiriyning ijodiy ta'siri, qodiriyshunoslik fanining shakllanishi, adib asarlarining o'zbek va jahon adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri hamda sho'ro davridagi siyosiy qatag'onlar natijasida uning ijodiy merosiga yetkazilgan zararlar haqida ilmiy xulosalar beriladi. Tadqiqot Abdulla Qodiriy ijodining bugungi adabiy jarayon va milliy o'zlikni anglashdagi dolzarbligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy, romannafis adib, adabiy fenomen, qodiriyshunoslik fan tarmog'i, tekstologik o'zgarishlar, Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

---

**Аннотация:** В статье рассматривается литературное наследие основателя узбекской романистики, выдающегося писателя Абдуллы Кадыри, его творческий гений и исключительная роль в развитии национальной литературы. На примере романа «Откан кунлар» («Минувшие дни») анализируются художественное мастерство автора, основанное на принципах реализма, богатство и выразительность языка, искусство создания образов, а также раскрытие таких ключевых тем, как судьба нации, независимость, духовность и свобода личности. Особое внимание уделяется влиянию творчества Кадыри на последующие поколения писателей, становлению кадыриеведения как научного направления, международному признанию его произведений и трагическим последствиям политических репрессий советского периода для его литературного наследия. Исследование подтверждает актуальность творчества Абдуллы Кадыри в современном литературоведении и процессе национального самосознания.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри, писатель, литературный феномен, направление кадыристики, текстологические изменения, наш уважаемый первый президент И. А. Каримов.

---

**Annotation:** This article examines the literary heritage of Abdulla Qodiriy, the founder of the Uzbek novelistic school, highlighting his creative genius and his invaluable contribution to the development of national literature. Using the novel “O'tkan kunlar”

20-Yanvar, 2026-yil

*(Bygone Days) as a primary example, the study analyzes the writer's artistic mastery based on the principles of realism, his rich and expressive language, skillful character portrayal, and his treatment of key themes such as national destiny, independence, spirituality, and individual freedom. The article also explores Qodiriy's influence on later literary generations, the formation of Qodiriy studies as a scholarly field, the international recognition of his works, and the tragic consequences of political repression during the Soviet era on his creative legacy. The research substantiates the enduring relevance of Abdulla Qodiriy's works in contemporary literary discourse and national self-awareness.*

**Key words:** Abdulla Kadiri, novelistic writer, literary phenomenon, branch of Kadiri studies, textological changes, our Honorable First President I.A. Karimov.

---

*Buyuk adimiz, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o'zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.*

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Inson tug'ulibdik, ma'naviyat bulog'idan suv ichmagan, uning ziyosi ostida ko'karmagan, aqliy jabhalarda teran fikrlab hayot yo'lini yorug'lik tezligi kabi yoritib nurafshonlab boragan buning tub negizida ham asl ma'noda Abdulla Qodiriy kabi bir qancha buyuk siymolarimizning xizmati ularning bizga qoldirgan manaviy boyliklari zulmatdan ziyo tarqatib bormoqda. Ularning bu ishlari tillardan tillarga, dillardan dillarga ko'chib qalbimizda, armug'on bo'lib kelmoqda. Teran ko'z bilan qaralganda, ham, o'zbek romanchiligiga tamal toshini qo'ygan buyuk romannafis- o'tkir qalam soxibidir. Tom ma'noda bir nazar solsak Abdulla Qodiriyning adabiyotga ma'naviy olamga juda katta tog' barpo etdi. Buning aksini esa romanlarni o'qigandan so'ng insonning terisi jumbushga keltiradigan qalbini quyosh nuridek yoritib isitib uning hayotga bolgan qarashlarini o'tgan zamon adiblarimiz xalqimizni kechmishlarini o'z asarlarida shunday mohirona usulda yoritib beradiki, haqiqatdan ham bu olamni mo'jizalaridan biri desak mubolag'a bo'lmas aslo.

Shuni takidlash joizki, Abdulla Qodiriy turmush tarzida ham o'zbek xalqiga o'rnak bo'la oladigan darajaga yetgan yetuk adib desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning isboti esa farzandlari Habibullo Qodiriyning so'zlarida o'z ifodasini topadi: "Men dadam oldida hech mahal reja yoki shunga o'xshash biror dastur ko'rmaganman. Chamasi, u kishi hamma plan-rejalarini ipidan –ignasigacha miyada obdon pishirib olardilar."

Ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixidagi ikki adabiy asrni milliy adabiyotimiz tarixining oltin sahifalari, desak adolatdan bo'ladi. Agar shu ikki asrning biri buyuk Navoiy nomi bilan munavvar bo'lgan XV asr to'g'ri kelsa, ikkinchisi Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho'lponning porloq ijodlari bilan boshlangan o'zbek adabiyoti tarixining yangi davri —

20-Yanvar, 2026-yil

XX asrdir. Shu ikki oltin asrning mash'allari bo'lgan bu buyuk siymolarning har biri o'zbek adabiyotimiz tarixidagi mo'jizaviy voqealardan biri va har biri adabiy fenomendir.

Shuni mamnuniyat bilan aytib o'tish joizki, Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish ishlarini xatarli 30-yillarda ustoz Oybek boshlab bergan. –Undan keyin Izzat Sultonov, Matyoqub Qo'shjonov, Ibrohim Mirzayev, Umarali Normatov, Ahmad Aliyev, Sobir Mirvaliyev, Sherali Turdiyev, Bahodir Karimov, Aliboy Qahramonov, Xadicha Lutfullayeva, Nabijon Boqiy singari olim va jurnalistlar, shuningdek, adibning farzand va nevaralari Habibulla, Mas'ud, Xondamir va Sherkon Qodiriylar bu sohada ibratli ishlarni amalga oshirdilar. Ularning fidokorona ilmiy va targ'ibotchilik faoliyatlari tufayli o'zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik fan tarmog'i yuzaga keldi. Biz qodiriyshunoslik ilmiga katta hissa qo'shgan olim va jurnalistlarning o'sha davrning eng shov-shuvli paytlarida o'z qimmatini yo'qotmagan asarlaridan foydalanish va ulardan olinajak adabiy-tarixiy va adabiy-nazariy lavhalarni ular nomi bilan e'lon qilish niyatidamiz.

Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari 20-yillardagi yangi o'zbek adabiyoti oldida turgan murakkab g'oyaviy-badiiy muammolarning juda ko'pini yechib berib, adabiy taraqqiyotning tezlanishiga xizmat etdi. Keyinroq o'zbek adabiyotining atoqli vakillari qatoriga ko'tarilgan Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor Abdulla Qodiriy ijodining katta ta'siri ostida yetuk yozuvchi bo'lib yetishdilar. Abdulla Qodiriy ijodining milliy adabiyotlarga ta'sirini tojik, turkman, qozoq va qirg'iz adabiyotining Sadriddin Ayniy, M. Avezov, X. Deryayev, Chingiz Aytmatov singari yirik vakillari ham qayta-qayta qayd etishgan. Nemis adabiyotshunoslari N.Tun, I. Baddauf, amerikalik tadqiqotchilar E. Olvort, Xristofor Murfi, asli eronlik amerika olimi Eden Nabi Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha jiddiy ishlar qilganlar.

Abdulla Qodiriy ijodidagi chuqur mazmunni jozibador va ravshan shaklda ifoda eta olish, hayotdan yirik va salmoqli voqealarni tasvir uchun tanlay olish, hayotdagi dramatik vaziyatlarga e'tibor, shaklning ixchamligi va katta prozada ortiqchaliklardan xoli ifodaning ustunligi, so'zning ma'noga mosligi va yorqinligi, hammadan ham muhimi – kishilar harakteridagi muhim xususiyatlarni ko'ra olish va tasvir eta bilish yosh avlod uchun doimo ibrat namunasi bo'lib kelmoqda. Oybek aytganidek, „O'tkan kunlar“ romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko'rsatadi. Romanning tili haqiqatan boy, bo'yoqli, sodda, ifoda kuchi zo'r, ommaga anglashilarlik bir tildir. O'zbek adabiy tilining shakllanishida bu asarning roli, shubhasiz, katta. Abdulla Qodiriy yosh adabiy avlodni doimo jahon realistik adabiyotidan o'rganishga chaqirar, o'zi ham jahon klassiklarini mutolaa etish va ularning asarlarini o'zbekchaga tarjima qilish jarayonida realizm ustalaridan o'qib-o'rganib borar edi. Adib o'z kasbi haqida to'xtalib shunday degan edi: „Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma'no, undan so'ng shu ma'noni ifoda qilish uchun so'z qurish, so'zgina emas, san'atkorona, ya'ni shundog' so'zki, aytmoqchi bo'lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo'lib, yasama bo'lmasin. Mana shu shartni bajarib, bu jihatdan ta'min etilgach, boshqa masalalarga o'tishga haq olgan bo'lasan...“.. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviyishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi.

20-Yanvar, 2026-yil

Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. „O‘tkan kunlar“ bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma‘naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan gavdalantirilgan. „O‘tkan kunlar“, bir qarashda, an‘anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari, fojiasi juda katta mahorat bilan tasvir etilgan. Asardagi ishqiy sarguzashtlar kitobxonni hayajonga soladi, Otabek bilan Kumushning go‘zal baxtini barbod etgan omillar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqslarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko‘rinishida o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir degan fikrni g‘oyat ustalik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs harakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsa-da, inson shaxsining muhit va sharoitga bog‘liq bo‘lmagan tug‘ma, sirli-sehrli g‘aroyib shevalariga ham e‘tiborni tortadi. Bu jihatdan bir oila, bir xil sharoitda tug‘ilib voyaga yetgan saviya-xarakter, surat va siymo vajidan ikki olam – egachi -singil Zaynab va Xushro‘ybibi obrazlarining talqini g‘oyat ibratlidir. Biri mute, itoatkor, nuqul o‘zgalar izni bilan ish ko‘radi; ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o‘z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi. Yozuvchi bu ikki shaxs xarakteriga xos tug‘ma xususiyatlarni sharhlash bilangina cheklanmaydi, bunday xislatlarning o‘sha kimsalar, qolaversa, o‘zgalar taqdiriga ko‘rsatgan ta‘siri, fojeiy oqibatlarini ham ifoda etadi. O‘zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo‘ygan Zaynab shu ojizligi tufayli o‘z baxtiga zomin bo‘libgina qolmay, yana o‘sha ojizligi tufayli o‘zgalar qutqusi orqasida beixtiyor jinoyatga qo‘l uradi – Kumushga zahar beradi. Mustaqillik, dadillik – yaxshi hislat, biroq unga xudbinlik aralashsa baloi azimga aylanishi mumkin. Xushro‘ybibi o‘z baxti uchun kurashadi; shaxsiy manfaatlari yo‘lida hech narsadan qaytmaydi; birovlarining ko‘z yoshlari hisobiga, o‘zgalarning baxtiqaroligi evaziga o‘z baxtini tiklaydi. Romandagi O‘zbek oyim obrazi ham nihoyatda tabiiy va go‘zal siymolardan biridir. Dumbul tabiat bu ayol o‘g‘li Otabek, qolaversa kelinlari – Kumush, Zaynab taqdirilarining chig‘allashib ketishi, oxiri fojiaga yuz tutishida bosh sababchi ekani ayon. Biroq har qancha gunohkor bo‘lmasin, o‘ta andishali adib uni keskin qoralashga tili bormaydi. Nima bo‘lganda ham, O‘zbek oyim, baribir ona... Ayni paytda rostgo‘y, realist yozuvchi onaning pala-partish, dovdur xatti-harakatlaridan, tabiatidagi ayrim kamchiliklaridan ko‘z yumib o‘tolmaydi. Bu borada adibga xalqona yumor qo‘l keladi. Bu obraz tasviri boshdan-oyoq ajib serjilo – ham kinoya-kesatiqqarga, ham ardoq-mehrga to‘la yumor bilan yo‘g‘rilgan. Xullas, „O‘tkan kunlar“ romani to‘qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg‘unligi jihatidan ham, mujassamot butunligi va tilidagi nafosati jihatidan ham o‘zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o‘rin olgandir. „O‘tkan kunlar“ o‘zbek adabiyotida ilk roman bo‘lishining o‘zi bilanoq ilgari bosilgan katta qadam edi. Unda realizmning asosiy

tamoyillari yuqori badiiy saviyada amalga oshirildi. Roman, umuman, o‘zbek adabiyotida yetuk realizmga asos soluvchilik rolini o‘ynadi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub birorta asar matni bizgacha yetib kelmagani boisi shundaki, ular tintuv paytida olib ketilib, kuydirib tashlangan, ularni nashr nusxalari bilan solishtirish imkoniyati ham afsuslar bo’sin kim iloji yo‘q. Ammo shu narsa aniqlandiki, adibning ayrim asarlari dastlab gazeta yoki jurnalda, keyin esa kitob shaklida nashr etilganida, ma’lum bir tekstologik ya’ni matniy o‘zgarishlarga uchragan. Bu hol “qomus”da adib asarlari matni tarixini berishdan avval jiddiy tekstologik tadqiqotlar olib borilishni taqozo etadi. Yozuvchining tarixiy romanlarining esa asosiy mavzusi – millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg‘usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo‘lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, xalqning, o‘zga millat kitobxonlarining sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho‘ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30-yillar o‘rtalariga kelib, bu mash’um kompaniya avjiga chiqdi. G‘ofir G‘ulom, Abdulla Qahhor, Uyg‘un kabi shogirdlarining "donos"lari ortidan Abdulla Qodiriy 1937-yil 31-dekabr kuni xibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so‘roq-tergov, qiynoq, xo‘rlikdan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi. Qodiriy xibsga olingach, asarlari „zararli“ sanalib o‘tda yoqildi, kutubxonalardan yo‘qotildi, ularni o‘qish ta’qiqlandi.

Qodiriyshunoslar adibning badiiy til bobidagi mahoratiga qoyil qoldi, tan berdi. Hatto o‘sha 30-yillar muhitida turib, “O‘tkan kunlar”ni ayamay tanqid etgan Sotti Husayn ham yozuvchining “o‘zbek adabiy tilining takomilida katta xizmati bor”ligini ta’kidladi: “A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” ro‘manini asosan hozirg‘i adabiy til bilan yozg‘an. Adabiy tilimizning yaxshi ishlanmaganidan xalq orasida iste’moldag‘i so‘zlarni diqqat bilan terib, o‘z o‘rnida ishlatmishdir. Til ustida maxtarliq, taqdir etarlik ish ko‘rsatkan”. S.Husayn Qodiriy qo‘llagan so‘zlarni tasniflaydi; romandagi jozibali tasviriy nuqtalarga diqqat qaratadi, xalq jonli tildan, og‘zaki ijod namunalaridan o‘rinli foydalanganiga urg‘u beradi.

Bunday mulohazalar Abdulla Qodiriyning nomi oqlanayotgan 60-yillar arafasida ham, qatiqni puflab ichayotgan ziyolilar masalaning mafkuraviy tomoniga nihoyatda ehtiyot bo‘lib yondashgani holda “har ikki romanning tili boy, sodda va badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi bilan, avtorning mohirligi bilan katta so‘z san’atkorligidan darak berar edi” (S.Abdulla fikri), “mening nazarimda, Abdulla Qodiriy o‘sha paytda o‘z tili va mahorati bilan boshqalardan ajralib turadigan iste’dodli so‘z san’atkori ekanini ko‘rsatgan edi” (M.Muhamedov fikri) kabi qarashlarni e’tirof etdilar.

Mamlakatimizning muhtaram birinchi Prezidenti I.A. Karimov buyuk adib haqida shunday fikrlarni ta’kidlab o‘tganlar: «Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo‘lmasa kerak. U faqat o‘zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlof kuychisidir».

Darhaqiqat, oradan sal kam bir asr o‘tgan bo‘lsa-da, bugun ham Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiy til taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos xizmatlari yurak-yurakdan e’tirof etishga, adibning mahorati, go‘zal yozg‘ichi - qalamiga tahsin aytishga majburiy.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.5-sinf adabiyot darsligi 2020-yil 133-bet
2. Bahodir Karimov, filologiya fanlari doktori “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013–4
3. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. T.: Fan, 1966.
4. Karimov B. 20 asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 2002
5. Oybek, Asarlar [19 jildli], 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li), T., 1979; Qodiriy H., Otam haqida, T., 1983; Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992; Qo‘shjonov M., O‘zbekning o‘zligi, T., 1994; Normatov U., Qodiriy bog‘i, T., 1995; Normatov U., „O‘tgan kunlar“ hayrati, T., 1996. Umarali Normatov, Bahodir Karimov.
6. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. T.: Fan, 1966.
7. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi. T., 1994.
8. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
9. Qodiriy H. Otam haqida. T., 1983.
10. Normatov U. Qodiriy bog‘i. T., 1995.
11. Karimov B. 20 asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 2002